

8-10-2019

## DISCRIPTION OF WOMEN IN THE NOVEL “JANE EYRE” BY SHARLOTTE BRONTE

Nargiza Abdullaeva

*Namangan State University Chair of English language and literature senior teacher*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Abdullaeva, Nargiza (2019) "DISCRIPTION OF WOMEN IN THE NOVEL “JANE EYRE” BY SHARLOTTE BRONTE," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 4 , Article 44.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss4/44>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [sh.erkinov@edu.uz](mailto:sh.erkinov@edu.uz).

---

## DISCRIPTION OF WOMEN IN THE NOVEL “JANE EYRE” BY SHARLOTTE BRONTE

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

## SHARLOTTE BRONTENING “JEYN EYR” ROMANIDA AYOLLAR TASVIRI.

Nargiza Abdullayeva

Namangan Davlat Universiteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi katta o`qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada XIX asrda yashab ijod etgan va ingliz adabiyotida yorqin iz qoldirgan Sharlotte Brontening mashhur “Jejn Eyr” asarida ayollar tasviriga qay darajada e`tibor qaratilganligi, asarda feminist yozuvchining ayrim o`ziga hos usullardan, leksik-stilistik bo`yoqdor iboralardan foydalanib asosiy qaxramonni va uning atrofidagi ayollar tasvirini aks ettirgani borasida fikrlar bayon etilgan.

*Kalit so`z va iboralar:* feminist adabiyot vakili, ayollar tasviri, leksik-stilistik bo`yoqdorlik, ayollarga hos tasviriy ifodalar, go`zallikni ko`ra bilish, oq soch o`qituvchi qiz.

## DISCRIPTION OF WOMEN IN THE NOVEL “JANE EYRE” BY SHARLOTTE BRONTE

Nargiza Abdullaeva

Namangan State University Chair of English language and literature senior teacher

*Abstract:* In this article it was discussed some ideas about famous English playwright Sharlotte Bronte who lived and worked in the XIX century. The main aim of this article is to analyze the description of women and how the feminist writer used some ways of description in the novel. The heroine and other women around her were described with literary portrait.

*Key words:* representative of literary, feminist, description of female, lexical and stylistic drawings, governess, rude and playful descriptions.

## ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РОМАНЕ ШАРЛОТТЫ БРОНТЕ “ДЖЕЙН ЭЙР”

Кафедра английского языка и литературы Наманганского Государственного Университета старший преподаватель Наргиза Абдуллаева

*Аннотация:* В данной статье рассматривается и уделяется особое внимание изображению женщин в произведении выдающейся писательницы английской литературы 19-го века Шарлотты Бронте Джейн Эйр. Автор анализирует использование лексических стилистических выражений использованные писательницей для изображения главного героя, а также окружающих её других женщин.

*Ключевые слова:* писательница, образ женщины, лексическо стилистические выражения, изобразительные выражения, уметь видеть красоту, гувернантка.

XIX asr ingliz adabiyotiga nazar tashlasak ijtimoiy real hayotiy voqealarni aks ettiruvchi romanlar asosiy rol o`ynaydi. Ayniqsa ushbu asrda yashab ijod etgan ingliz feminist yozuvchisi Sharlotte Brontening ijodiy faoliyati va “Jejn Eyr” romani katta ahamiyatga ega. Ushbu asar o`z davrining eng muhim jihatlaridan bo`lgan jamiyatning siyosiy qarashlarini, ijtimoiy tengsizlik tafovutlarini muallif tomonidan yuqori badiiylik bilan sayqallangan holda yozilgan. Yosh ijodkor yozuvchining badiiy adabiyot sahnasidagi kashfiyotlaridan biri ichki ruhiyat va ijtimoiy “taqdir” o`rtasidagi kurashni mohirona

ochib bera olganligida namoyon bo'lgan. Asarda yosh yollanma o'qituvchi qiz orqali ideal inson ifodasi, jamiyat fikri bilan doimiy xamjihatlikda bo'lavermaydigan, hamma narsadan ham o'zining erki va insoniy xuquqlarini ustun ko'ruvchi ayol gavdalanirilgan. Ushbu maqolada asosan Sharlotte Brontening "Jeyn Eyr" asaridagi ayol obrazlarini tasvirlash uchun yozuvchi qay darajada leksik-stilistik usullardan foydalanganligi, shuningdek insonlarni badiiy ifodalashda ayrim o'ziga hos metodlarning samarali ishlatganligi va asosan romanning lug'aviy tarkibidagi ba'zi bir bo'yoqdor so'z va iboralar to'g'risida fikr yuritilgan.

"Jeyn Eyr" asari ayrim adabiyotshunoslarning fikricha[1] "tarbiyaviy roman" lar toifasiga kiritiladi. Chunki romanning boshlanishidan to so'ngiga qadar Jeyn Eyr bilan sodir bo'ladigan barcha voqea xodisalar, ya'ni qaxramonning xayot ummonidagi qayg'u va alamlari, boshidan kechirgan qiyinchiliklari, doimiy yashab ketish va baxtli bo'lish uchun olib borgan kurashlari va albatta uning mustahkam irodasi haqida o'qish orqali kitobhon o'ziga albatta katta ma'naviy ozuqa oladi. Deyarli asardagi barcha obrazlar aytaylik bo'rtirib, goh-gohida esa hayoliy mubolag'alar bilan tasvirlangan. Bronte tez-tez tasviriy usullarni va emotsional ta'sir etuvchi ifoda vositalarini o'zgartirib turadi. Bu shuni anglatadiki, asarda tasvirlangan insonlar ayniqsa ayollar turli hil qiyofada ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Asar asosan hayoliy ya'ni romantik asarlar turkumidan bo'lsada, ayrim o'rinlarda hayotiy elementlarni ham uchratish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozim, Sharlotte Brontening ijodida hayoliy dunyo tasviri bilan hayotiy voqealar uzviyligi yorqin namoyon bo'ladi.[2]

Sharlotte Bronte ingliz adabiyotida insonlarning qiyofasini tasvirlab berishda o'zining mohir usta ekanligini ko'rsatib bera olgan yozuvchilardan biridir. Uning ijodi nafaqat insonlarning tashqi ko'rinishini balki asar qahramonlarining ichki dunyosini yorqin chizgilar bilan yoritib bera olganligida, so'z va iboralarni aniqlik bilan tanlay olganligida ham ajralib turadi. Yozuvchi o'z oldiga qat'iy maqsad qo'ygan edi. U insonlarning xarakterlarini tasvirlash orqali ularning butun ichki dunyosini ko'rsatib bermoqchi bo'lgan va bunga qaysidir ma'noda erishadi ham. Ramonda asosiy qaxramon Jeyn Eyrning atrofida bir qator ayollarni uchratish mumkin va ushbu ayollarning har biri qaxramon xarakterini shakllanishiga turtki bo'lgan hamda Jeyn Eyr taqdirida u yoki bu darajada muhim rol o'ynaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek asarda ayol obrazlarini ko'p uchratish mumkin lekin mening fikrimcha eng asosiylari bular Jeyn Eyr, missis Rid (Rid Xonim) va uning qizlari, Elen Berns, MissTempl, Blansh Ingrem va Berta Mezonlardir.

Muallif asardagi Jeyn Eyr obrazini boshqa barcha ayol obrazlar qatori bir-biriga zid bo'lgan prinsip asosida tasvirlaydi. Bu shuni anglatadiki, yozuvchi qaxramonning ichki ruhiyati bilan tashqi ko'rinishini qarama qarshi qo'yadi. Qaxramon obrazini shakllantirish orqali Bronte o'z oldiga qo'ygan maqsadi sari intiladi, uning fikricha odatda badiiy asarlarda barcha kitobxonlar tomonidan tan olinadigan "go'zallik" qaxramonning ichki dunyosini qay darajada boy ekanligini tasvirlay bilish orqali namoyon bo'lishi kerak. Romanda asosiy qaxramonning ko'rimsiz tashqi ko'rinishi turli hil personajlarning nutqi orqali tinimsiz ravishda ta'kidlab o'tiladi. Shu o'rinda misollarga nazar tashlaymiz. Xizmatkor Ebbat uni shunchaki "ko'rimsiz turqi sovuq"(asarning B. Stanevich tomonidan ruscha tarjimasida ushbu so'z "urodka" tarzida berilgan ) deb ataydi.[3] Janob Rochester

esa Jejn bilan birinchi uchrashuvdayoq “narigi dunyodan kelgan farishta” tasvirini beradi. Rivirlar honadonidagilarda u “rangida qoni yo`q oppoq, nafasatdan holi o`ta xunuk” qiz tasavvurini qoldiradi. Jejnning xarakteri to`g`risidagi fikrlarni xuddi uning tashqi qiyofasi kabi boshqa qaxramonlarning ayniqsa kibru hayoli Rid Xonim va uning farzandlari, shuningdek asosan xizmatkorlarning nutqi orqali uchratishimiz mumkin. Xizmatkor Bessi doimiy ravishda qizga achinganligidan uni “g`alati qizaloq” deb hisoblaydi va Jejn haqida so`z borsa u odatda “hilqat” so`zini qo`shib gapiradi. Masalan kichkina, yolg`izgina hilqat; g`alati, hurkigan, uyalgan hilqat; ojizgina, kuzatuvchan hilqat kabi iboralarni asarda bir necha bor uchratish mumkin. Bu kabi Jejn haqidagi boshqa qahramonlarning mulohazalari orqali biz uning xarakteri qirralarini bilib olishga muyassar bo`lamiz. Rozamanda Oliver qizni og`ir-vazmin, barcha bilan bir hil munosabatda bo`luvchi ayol sifatida qabul qiladi. Janob Rochester esa Jejnning tashqi ko`rinishini ko`pincha qiyoslash orqali beradi. U qizni “Siz cherkov monashkalariga o`xshaysiz, kichkinagina oppoq, ushoqdek keluvchi elf” deb ataydi. Keyinchalik u Jejnning sevgisini his qilgandan so`ng, boshqa leksik birliklardan foydalanadi. Bularga “gul-gun chehrali, kulib turuvchi, haqiqatdanda juda chiroyli, yanoqlaridagi kulgichlari bilan yonib turuvchi, botiq ko`zli qiz” kabi misollarni keltirishimiz mumkin.[4]

Keyingi o`rinlarda yuqorida aytib o`tilganidek, asardagi Rid Xonim obrazi tasviriga bir nazar tashlaymiz. Bu ayol Jejn Eyrning tog`asi janob Ridning bevasi bo`lib, u bizning qaxramonga zo`rg`a toqat qiladi, ammo erining so`ngi vasiyatiga ko`ra u qizga vasiylik qilishi lozim edi. Rid Xonim o`zining ikki qizini Jejnga misol qilib noxaq uning qulog`ini qomatga keltiradi. Aslida uning bu qizlari Jejni ularning oyog`i ostiga yiqilib tiz cho`kishini xohlaydigan axmoq, betarbiya qizlar edi. Asarda ularga “shavqatsiz, yuraksiz” deb tasvir beriladi. Rid Xonim o`zining qizlarini Jejndan jismoniy ustun ekanligini to`g`ridan to`g`ri uning yuziga soladi. Jejni “yoqimsiz, chidab bo`lmas qiz” deb ataydi. Aslida asarni o`qir ekanmiz Rid Xonimning o`zi yoqimsiz bo`lib, xattoki qalbi pok Jejn ham o`z xolasini o`limi oldidan ham kechira olmaganlihgiga guvoh bo`lamiz. Bu haqida romanning ilk dialoglarida ham ko`rish mumkin. Jejn shunday deydi: “Ha, Rid Xonim men sizga qanchadan-qancha ruhiy azoblarim uchun qarzdorman.” Sharlotte Bronte asardagi Blensh Xonim va Rid Xonim obrazlari o`rtasidagi o`xshashlikni Jejnning tili orqali shunday izohlaydi. “Uning qarashlari sovuq va shafqatsiz edi va ko`proq Rid Xonimni eslatardi. Uning bu qarashlari xattoki o`limi oldidan ham o`zgarmadi. Rid Xonim kiyinishni bilardi va tabi nozik bo`lib, chiroyli liboslarni kiyardi. U to`lachadan kelgan ayol edi lekin ko`zlarida hech qachon qalb mehrini ko`rib bo`lmasdi”. Yuqoridagilarning barchasi kitobxonga xokimiyatga o`ch, xudbin ayol tasvirini beradi lekin Jejn ana shunday salbiy obraz egasidan umuman qo`rqmas edi va asarda shunday iboralar bor. “Odamlar sizni rahmdil deb o`ylaydilar, aslida siz axmoq, yovuz yurak egasisiz. Asli siz yolg`onchisiz.” Xattoki Rid Xonim hayotining so`ngi daqiqalarigacha Jejnga bo`lgan nafratidan holis bo`la olmaydi. U Jejn va uning tog`asini uchrashtirishi mumkin edi, lekin bu ishni amalga oshirmay o`zi bilan bu yukni mangulikka olib ketadi.

Elen Berns obrazi orqali biz muallif Sharlotte Brontening katta opasi Mariya Bronte qiyofasini ko`rishimiz mumkin. Chunki u ham asardagi Elen kabi Kovanbridj diniy maktabining og`ir sharoitlari tufayli hayotdan erta ko`z yumga edi. Asar qaxramonlaridan Elen esa Lovud maktabida Jejn Eyrning ruhan murabbiyasi bo`ladi. Bu aqilli, mehribon,

yosh qiz o'zining jasurligi va matonati bilan, shuningdek boshqalardan o'zgacha ajralib turuvchi zehni bilan asar qaxramoni Jeynni hayratda qoldirar edi. U doim Jeynga shunday uqtirardi: "Agar butun dunyo seni yomon ko'rsa ham va axmoq deb bilsa ham, o'zing uchun vijdoning toza bo'lsa, sen doimo o'zing uchun do'st topa olasan." [5] Kitobxon asarni o'qir ekan ko'z o'ngida barcha narsani Alloh tomonidan buyurilganligini tan olib, o'zining og'ir kasal bo'lishiga qaramay o'ta kuchli xarakterga ega bo'lgan nimjon, kasalvand qiz qiyofasi gavdalanadi. Ushbu obrazni muallif toza zilol suv oqib chiqib turgan buloqqa o'xshatadi va bizning qaxramon Jeyn hech qachon u bilan suhbat qurishdan charchamaydi. Ularning do'stligi Elenning qizamiq kasalligiga chalinib olamdan erta ko'z yumganligi sababli uzoqqa cho'zilmaydi lekin Jeyn Eyr hayotida bu qiz muhim iz qoldiradi.

Lovud maktabidagi o'qituvchi Templ Xonim obrazi Jeyn uchun xuddi yoshligidan unga yetishmayotgan "ona" vazifasini bajaradi. Templ Xonimning o'z oilasi bo'lmaganligi sababli u o'zining bor mehri va g'amxo'rlikini Elen Berns va Jeyn Eyr kabi himoyasiz o'quvchilariga beradi. Templ Xonim xuddi ona kabi o'z bilganlarini Jeynga o'rgatadi, jumladan rasm chizish, fransuzcha gapirish va o'qituvchida mujassam bo'lgan boshqa barcha jihatlarni Jeyn undan o'rganadi va keyinchalik yollanma o'qituvchi bo'lib ishlaganida bular unga juda as qotadi. Jeyn birinchi marotaba Templ Xonimni ko'rganida unda o'qituvchisi shunday taassurot qoldiradi. "Kelishgan, chiroyli, jigar rang ko'zli, uzun kiprikli, minnatdor qiyofaga ega va xuddi shunday xarakter qiluvchi, to'la qadr-qimmatga ega ayol". Templ Xonim o'z o'quvchilarini hjayotda botir askarlar kabi oldinga intilishga undaydi. va ularga o'zi namuna bo'ladi. Jeyn doimo unga so'zsiz quloq soladi. Aynan shu o'qituvchisining maslahatlari bilan u o'zining boshidan kechirganlarini Janob Brokxerstga so'zlab bera oladi. Asarda ushbu obraz ichki va tashqi go'zalligi bilan yaqqol tasvirlay olingan va u Jeyn bilan to'rtmushga chiqib Lovud maktabini tark etgunga qadar birga bo'ladi.

Hulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asarda bosh qaxramon ota-onasidan erta yetim qolgan qiz yolg'iz bir o'zi hayot uchun kurashadi, lekin uning atrofidagi ijobiy va ayrim salbiy obrazlar unga o'zlari bilmagan holda katta yordam beradilar. Muallif bosh qaxramon obrazini shu darajada tasvirlay olganki natijada uning ichki go'zalligini o'qib tushungan har bir kitobxon "ko'rimsiz xunuk qiz"ni yaxshi ko'rib qoladi. Uning atrofini o'rab turgan boshqa ayol obrazlarning mohirona tasviri esa kitobxonni asarni qayta va qayta o'qishga undaydi.

#### References:

1. What roles do women play in Jane Eyre? Expert answers. D Reynold certified educator.
2. Jenskije obrazy v romane Sharlotte Bronte "Djeyn Eyr". <https://otherreferats.allbest.ru>
3. Sharlotte Bronte. "Djeyn Eyr" perevod s angliyskogo V. Stanevich. Moskva.1990.
4. Charlotte Bronte "Jane Eyre" adapted by Margery Green Macmillan Publishers Limited. 2009.
5. The Longman Dictionary of Contemporary English (LDOCE). New edition. For advanced learners.